

“Mustaqillik to‘yi” festivali va “Mustaqillik kubogi” musobaqalari yakunlandi

// 21.08.2026

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/mustaqillik-to-yi-festivali-va-mustaqillik-kubogi-musobaqala>



O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan “O‘zkimyosanoat” AJ tashabbusi asosida D.I. Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo-texnologiya universitetining Toshkent shahridagi filialida tarmoq korxonalari xodimlari o‘rtasida “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” shiori ostida “Mustaqillik to‘yi” festivali hamda “Mustaqillik kubogi” sport musobaqalari tashkil etildi.



To'rt kun davomida o'tkazilgan tadbirlardan ko'zlangan asosiy maqsad — mamlakatimiz mustaqilligining tarixiy ahamiyatini keng targ'ib qilish, tarmoq korxonalari xodimlari o'rtasida do'stlik va hamjihatlik muhitini mustahkamlash, ularning sport va madaniy tadbirlardagi faol ishtirokini rag'batlantirishdan iborat bo'ldi.



“Mustaqillik to‘yi” festivali doirasida tarmoq korxonalarida ko‘p yillar samarali mehnat qilgan mehnat faxriylari ishtirokida **“Uch avlod uchrashuvi”** hamda **“Rahbar va yoshlar”** uchrashuvlari o‘tkazildi. Muloqotlar davomida korxonalarda shakllangan mehnat an‘analari, sohadagi bugungi o‘zgarishlar va yosh mutaxassislar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar haqida fikr almashildi.



Festival bilan bir qatorda “Mustaqillik kubogi” doirasida voleybol, stol tennisi, mini-futbol, basketbol va gandbol sport turlari bo'yicha qizg'in bahslar tashkil etildi. Unda tarmoq korxonalaridan jamlangan jamoalar ishtirok etib, o'zlarining jismoniy tayyorgarligi, chaqqonligi va jamoaviy harakatlarini namoyon etdilar.



Sport musobaqalari ishtirokchilar uchun nafaqat o'z mahoratlarini sinovdan o'tkazish, balki turli korxonalar vakillari bilan yaqindan tanishish, o'zaro tajriba almashish va do'stona munosabatlarni mustahkamlash uchun ham muhim maydon bo'ldi.



Tadbirlarning yakuniy qismida musobaqalarda faol ishtirok etgan xodimlar hamda g'olib va sovrindor jamoalar esdalik sovg'alari va munosib taqdirlovlar bilan rag'batlantirildi.



